


2024– yilning yanvar–sentabr oylarida Jizzax viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi koʻrsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 20222,0 mlrd. soʻmni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 19765,8 mlrd. soʻmni (101,2 %), oʻrmon xoʻjaligi – 253,1 mlrd. soʻmni (103,6 %), baliqchilik xoʻjaligi – 203,1 mlrd. soʻmni (101,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Jizzax viloyatining ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

**20222,0****Jizzax viloyati bo'yicha
qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm****01****19765,8 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar****02****253,1 Oʻrmon xoʻjaligi****03****203,1 Baliqchilik xoʻjaligi**

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼatlari




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- Oʻrmon xoʻjaligi
- Baliqchilik xoʻjaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xoʻjaligi sohasidagi xizmatlar

2024– yilning yanvar–sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,7 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,3 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,0 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi G‘allaorol (3117,6 mlrd. so‘m) va Baxmal (3056,8 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (301,9 mlrd. so‘m) va Yangiobod (533,2 mlrd. so‘m) tumanlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichi (101,2 %) dan yuqori o‘shish sur‘atlari G‘allaorol (105,2 %), Baxmal (104,9), Yangiobod (103,0 %), Forish (102,3), Jizzax shahrida (101,6 %) kuzatildi. Arnasoy (101,1 %), Zarbdor (101,0), Sharof Rashidov (100,3), Paxtakor (100,2), Mirzacho'l (100,1), Zafarobod (96,5 %) va Do'stlik (93,5 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024 – yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 19 595,4 mlrd. so'mni yoki 2023 – yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 6902,4 mlrd. so'mni (93,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 12 693,0 mlrd. so'mni (106,0 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,8 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,0 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l tumanida (50,4 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (95,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Zafarobod tumanida (10,7 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Jizzax shahrida (0,9 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Mirzacho'l tumanida (46,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Do'stlik tumanida (0,4 %) kuzatildi.

Dehqonchilik


2024– yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6902,4 mlrd. soʻmni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 35,2 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 125,6 ming t. sabzavotlar (2023– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 58,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Jizzax viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming tonna




Chorvachilik



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 12 693,0 mlrd. soʻmni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,8 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 175,9 ming t. go'sht (2023– yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga koʻp), 499,8 ming t. sut (4,9 % ga koʻp), 276,9 mln. dona tuxum (11,1 % ga kam) yetishtirildi va 9 250,0 t. baliq (0,8 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 175,9 ming t. go'sht (2023– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 6,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 94,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgani kuzatildi.




**Jizzax viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 499,8 ming tonna sut (2023– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 96,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Jizzax viloyati bo'yicha yetishtirilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 276,9 mln. dona tuxum (2023– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 11,1 % ga kam) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga hissasiga to'g'ri keldi.




Jizzax viloyati bo'yicha
yetishtirilgan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ovlangan baliqning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 9 250,0 tonna (2023– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,8 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 70,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



Jizzax viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, yirik shoxli qoramollarning 6,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini kuzatildi, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 18,6 % i fermer xo'jaliklariga, 65,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlar umumiy sonidan 25,4 % i fermer xo'jaliklariga, 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 48,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 43,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 977,5 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 18,1 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024 – yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Jizzax viloyati
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni, ming bosh**




2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 279,1 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,4 ming taga (1,6 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 87,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 427,6 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 76,5 ming taga (3,3 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 65,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Jizzax viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 31 282 taga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 654 taga (2,1 %) ko‘paydi.

Otlar



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 57,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 898,4 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 320,1 ming taga (7,6 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati




**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 72-221-51-17
• 72-221-54-00